

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UO‘K:891.709575-141

ORCID:0009-0000-0679-0590

NUROTADA XALQ OG‘ZAKI IJODI VA UNDA DAVR RUHINING IFODALANISHI

Rajabov Faxriddin Toshpo‘lotovich
f.f.f.d. (PhD)

Navoiy innovatsiyalar universiteti
faxriddin1818@mail.ru

Annotatsiya: Ijodkor ziyolilar nomoddiy madaniyatning asosiy ta‘minlovchilari hisoblanadi. Zarafshon vohasida Samarqand va Buxoro shaharlaridan keyin, o‘z mashhurligiga ko‘ra Nurota va u bilan bog‘liq mashhur hududlar (masalan, Xatirchi) turadi. Bu hududdagi qadimgi davrlardan beri mavjud ziyoratgohlar, ular bilan bog‘liq afsonalar Nurota vohasi madaniy muhiti shakllanishi uchun katta asos yaratib bergan. Ayni madaniy muhitning ajralmas qismi sifatida Nurota ijodkorlarini ko‘rsatish mumkin. Garchi, Nurota ijodkorlari muhitini haqiqiy ma‘nodagi adabiy muhit deb atay olmasak-da, ayni hududda badiiy ijod bilan shug‘ullanish o‘z tarixi va asoslariga ega ekanligini kuzatish mumkin. Nurotalik shoir va yozuvchilarning badiiy ijodi shakllanishida xalq og‘zaki ijodi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Nurotalik baxshilar tomonidan kuylanagan doston va yaratilgan termalar badiiy qimmatini jihatidan alohida ilmiy-nazariy qimmatga ega. Shu nuqtayi nazardan biz ushbu maqolada nurotadagi og‘zaki ijod namunalari va ularda yaratilgan davrning ijtimoiy hayotining ifodalanishi masalasi xususidagi ayrim qarashlar o‘z ifodasini topadi.

Kalit so‘zlar: Baxshi, og‘zaki ijod, kitob, kitobxonlik, shoir, she‘rxonlik, doston, terma, maqol, jirov, jirchi, do‘mbira, rubob, qo‘biz

THE ORAL FOLKLORE OF NUROTA AND ITS EXPRESSION OF THE SPIRIT OF THE PERIOD

Abstract: Creative intellectuals are the main providers of intangible culture. After the cities of Samarkand and Bukhara, in the Zarafshan oasis, Nurota and its famous landmarks (for example, Khatirchi) are second in popularity. The shrines that have existed in this area since ancient times and the legends associated with them have created a great foundation for the cultural environment of the Nurota oasis. Nurota's creators can be considered an integral part of this cultural environment. Although the environment of Nurota's creators cannot be called a

literary environment in the true sense, it is possible to consider artistic creativity in this area as having its own history and foundations. Folk oral culture serves as the main source of creative work of Nurota poets and writers. The epics and terms sung by Nurota's bakhshis are of great scientific value. From this point of view, in this article we will consider examples of oral creativity in the Nurota and express our particular views on the issue of the expression of the social life of the period in them.

Keywords: Bakhshi, oral creativity, book, book reading, poet, poetry, epic, terma, proverb, jirov, jirchi, dombira, rubab, qobiz

ВЫРАЖЕНИЕ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА И ДУХА ВРЕМЕНИ В НУРАТИНСКОМ РЕГИОНЕ

Аннотация: Творческие интеллектуалы являются основными поставщиками нематериальной культуры. После городов Самарканда и Бухары в Зарафшанском оазисе по популярности находится Нурата и родственные ей знаменитые местности (например, Хатырчи). Святыни, существовавшие на этой территории с древнейших времен, и связанные с ними легенды создали прекрасную основу для формирования культурной среды Нуратинского оазиса. Как неотъемлемую часть этой культурной среды можно отметить создателей Нураты. Хотя среду создателей Нураты нельзя назвать литературной средой в истинном смысле, можно заметить, что художественное творчество в регионе имеет свою историю и основы. Народное устное творчество служит основным источником формирования художественного творчества поэтов и писателей Нураты. Эпосы, воспеты нуратинскими бахши, и созданные термики имеют особую научно-теоретическую ценность с точки зрения своей художественной ценности. С этой точки зрения в данной статье мы выскажем некоторые взгляды на вопрос о примерах устного творчества в романе и о выражении созданной в них общественной жизни периода.

Ключевые слова: Бахши, устное творчество, книга, книгочтение, поэт, поэзия, эпос, терма, пословица, дзиро, джирчи, домбира, рубоб, кобиз

KIRISH. Dunyo adabiyotida ham, xususan, O‘zbek adabiyotida ham badiiy ijodkorlikning vujudga kelishi bevosita xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. “Poetik shakllar muayyan mazmunni faqat o‘z imkoniyatlari doirasida ifodalaydilar. Binobarin, faqat birgina mavzudagi lirik kechinma bir vaqtning o‘zida ham g‘azal, ham ruboiy shaklida ifodalanganda, ularda tug‘ilgan taassurot, g‘oyaning keng yoki tor ifodalanish darajasi turlicha bo‘ladi. Demak har bir janr hayotiy mazmunga-mavzu, g‘oya kabilarga befarq poetik shakllar emas. Bu narsa folklorda aniq ko‘zga tashlanadi. Chunki og‘zaki poetik janrlarning nafaqat poetikasi va hayotiy qamrov darajasi, balki ularning ijro o‘rni, ijro shakli va funksiyalari folklorda aniq hisobga olinadi. Masalan, to‘yda yig‘i-yo‘qlov aytilmaganidek, motamda alla yoki kelin salom aytib bo‘lmaydi. Ma’lum bo‘ladiki, har bir poetik shaklning o‘ziga xos tasvir yoki ifoda imkoniyatlari

hayotiy vazifalari mavjud bo‘lib, shaklning ana shu talablari orqaligina mazmun qamrab olinadi”[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Nurotalik baxshilar tomonidan aytilgan doston va termalar folklorshunosligimizda alohida ahamiyatga ega bo‘lib o‘zbek adabiyoti va folklorini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Bu haqidagi e‘lon qilingan alohida manbalar va adabiyotlar qisman Rahim Qodirning asarlarida o‘z ifodasini topadi. Nurotada doston aytuvchilar “jirchi” yoki “jirov” atamaları bilan ifodalangan. Nurota dostonchilik maktabi asli nomi Qo‘tirqishloq dostonchilik maktabi deb yuritilgan chunki, ko‘plab doston kuylovchi baxshi-shoirlar aynan shu qishloqdan yetishib chiqqan. Bu nom keyinchalik Mozor qishloq deb nomlangan, bugungi kunga kelib esa, Saidjon Eshon qishlog‘i nomi bilan yuritilmoqda. Bu qishloq nomi bilan yuritilgan baxshichilik maktabi va uning dostonchilikdagi o‘rni xususida mulohazalar manbalarda o‘z aksini topgan[2].

Nurota dostonchilik maktabining shakllanishida Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining bevosita aloqalari va ta’siri katta bo‘lganligini ta’kidlash joiz. Lekin Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining yirik vakili Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ham nurotalik atoqli baxshilar haqidagi fikrlarini uchratmadik[3]. Bu haqida Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining so‘nggi vakillaridan biri Rahmatulla Yusuf o‘g‘li fikrlarini ham keltirish o‘rinli. “To‘g‘risini aytganda, bu haqda-Qo‘rg‘on va Qo‘tirqishloq dostonchilik maktablari vakillarining o‘tmishda bir-birlarini bilgan va bilmaganliklari xususida dab-durustdan bir narsa deyish qiyin. Olimlarimiz birlik tomonlarini ko‘rsatishga harakat qilayotirlar. Ammo ustozim Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan ular haqida hech narsa eshitmovdim. Buning sababi, shu mavzuda suhbat ochilmagani bo‘lsa kerak. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘lini ilk va so‘nggi bor 1946 yili Toshkentda doston yozdirayotgan paytlarida ko‘rdim. O‘tkir baxshi edi...”[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Nurota dostonchilik maktabida Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘ligacha bo‘lgan ustoz-baxshilar Xolmurod, Chankut, Qurbon, Eshmurod jirovlar bo‘lsa undan keyin esa Ashur baxshi, Isirgap, Nortoy qozoq, Jiyanboy, Islom, Ahmamad, Mamatnazar, Tursun, Fayzi ota Najmiddinov, Murod jirov, Nurnazar jirov Ro‘ziboy o‘g‘li, Mansur baxshi, Abdujalil baxshi, O‘tkir Ulfat, Mullo Ismoil, Rahmon baxshi, Normurod, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Qurbon Navro‘zov, Tursun Sherov, Ma‘mur Ermatov, Ergash Asaboyev, Xushvaqt baxshi Yusupov kabi baxshilar nomini alohida ta’kidlash joiz. Ularning baxshichilikdagi mahorati ancha quloch yoygan. Boshqa dostonchilik maktabidan Qo‘tirqishloq jirovlariga xos mushtarak bir xususiyat shundan iborat bo‘lganki, ular bir dostonni o‘zbek davrasida o‘zbekcha, qoraqalpoq davrasida qoraqalpoq, qozoq davrasida qozoq, tojik davrasida tojik, turkman davrasida turkman tiliga yaqinlashtirib kuylashga intilganlar. Bu haqida Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li shunday deydi:

Chankutning shogirdi Qurbon shoirning

Ovozasi ko‘p joylarga yoyildi.

Qozoq, qoraqalpoq, turkman-u o‘zbek,

Yana tojiklar ham unga qoyildi[5].

Angashiladiki, Nurota jirovlari ko‘pgina turkiy xalqlarning an‘anaviy dostonlarini kuylab kelganlar. Demak ular o‘zlarining shu xalqlar og‘zaki badiiy ijodi xazinasiga muayyan ulushlarini qo‘shganlar. Tabiiyki, izlanishlar jarayonida ko‘p narsalar oydinlasha boradi. Nurota dostonchilari haqida materiallar faktlar to‘plash jarayonida, ular boshqa maktab shoir-dostonchilaridan farqli yana bir mushtarak xususiyatga ega ekanliklari-do‘mbira, dutor, qo‘bizni birdek mahorat bilan cherta olganliklari ma‘lum bo‘ldi. Shu boisdan ham ular o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va qozoq jirov-oqinlaridek qo‘bizda kuylaganlar. Folklor ishlarimizda, o‘zbek dostonchiligi tarixida faqat Bekmurod jirovgina qo‘biz yordamida doston aytganligi zikr etiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Nurota dostonchilik maktabining qoraqalpoq, qozoq baxshilari ham o‘z tajribalarini oshirish maqsadida aynan nurotalik baxshilardan doston aytish sirlarini o‘rganishgan.

Nurota dostonchilik maktabining vakillari doston va termalar saqlanib qolgan. Merosining mavzulari turli bo‘lib ularda: zamondan shikoyat, amaldorlardan norozilik, o‘zining nochor ahvolidan xabar berish kabi mavzularda kuylangan termalar mavjud.

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan ayrim baxshilar haqidagi ma‘lumotlar yetarli darajada saqlab qolinmagan. Ular ijodiy merosi xususidagi ma‘lumotlarimiz asosan doston va termalar shaklida mavjud. Lekin ba‘zi baxshilarning faqat doston kuylaganliklari aytib o‘tiladi-yu ularning merosi o‘sha davrda saqlab qolinmaganligi sababli bir misra ham keltirilmaydi.

Nurota dostonchilik maktabi shakllanishida Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li xizmatlari beqiyos bo‘lgan chunki, o‘zigacha bo‘lgan mashhur baxshilarni u o‘z dostonlarida yoki termalarida bot-bot takrorlaydi. Ulardan ya‘ni Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘lidan oldin yashagan baxshilar xususida aniq materiallar va ular ijodidan namunalar deyarli saqlanib qolinmagan. Lekin og‘zaki tarzda baxshichilikdagi xizmatlari e‘tirof etiladi. Mavjud ma‘lumot va materiallarning to‘planishida filologiya fanlari doktorlar M. Afzalov, Z.Husainova, M.Saidov va folklorshunos, jurnalist R. Qodirovlarning xizmatlari katta bo‘lgan.

Xolmurod baxshi ijodi haqida og‘zaki tarzda ma‘lumotlarga egamiz. Nurota baxshichiligida betakror aytish uslubiga ega bo‘lgan baxshi xususida Bekmurod baxshi Jo‘raboy o‘g‘li (Bekmurod jirov) “Avazxon”dostoni qahramonlarini tasvirlab bo‘lgach, shu yo‘lda, ya‘ni usulda kuylagan ustod dostonchilarni ehtirom ila esga oladi:

Bu “yo‘l” bilan aytib o‘tgan Avazxon,

Qoraqalpoqda Xolmurod shoirdi.

Xolmurod baxshidan bu yo‘l qolgandi,

Chakut baxshi undan ta‘lim olgandi.

bundan ko‘rinadiki, Bekmurod baxshi Jo‘raboy o‘g‘li Xolmurod baxshining o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan, o‘z yo‘li, uslubiga ega bo‘lgan ustoz dostonchilardan hisoblangan. “Xolmurod shoir” deb hurmat bilan tilga olinishi ham shuni ko‘rsatadi. Avazxon dostonini “bu yo‘l bilan aytib” o‘tishi esa mazkur dostonchi betakror iste‘dod egasi bo‘lganini bildiradi. Bekmurod baxshi Jo‘raboy o‘g‘li Xolmurod shoir “Avazxon” dostonini bu yo‘l bilan aytib o‘tgan, deyish bilan chegaralanmaydi. Balki:

*Xolmurod baxshidan bu yo‘l qolgandi,
deb alohida uqtiradi.*

Nurota dostonchilik maktabining yirik vakillaridan biri Chankut jirov (Do‘stmuhammad Xolmurod o‘g‘li)dir. Uning ijodiga mansub saqlab qolingani namunalarni asosan termalar tashkil etadi. Bironta doston baxshidan yozib olinmagan. “Qirqqiz” dostonini kuylagan Qurbon jirov doston yakunida Chankut jirov ham shu dostonni kuylaganligidan xabar beradi. Lekin Chankut jirovning izdoshlari “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avazxon”, “Kuntug‘mish”, “Malikayi ayyor”, “Dallioyim” kabi o‘ndan ortiq dostonlarni sevib kuylashgan. Bu dostonlar sayqal topishiga so‘zsiz, ustoz Chankut baxshining ham mehnati singgan. Ularning mazmuni turli mavzularga bag‘ishlangan. Xalq hayoti, orzu-maqсадlari, ijtimoiy hayotdagi adolatsizliklardan norozi bo‘ladi:

*Nazarbiyda jirav aytdim,
Qo‘limga berdi besh tanga.
Hammasin ko‘rsam sari aqcha,
Bunday jirovlik qilgancha,
Gadoylik etganim yaxshi[6].*

Shoir o‘zi yashayotgan davrdan xalq kuychilariga qilingan muomaladan norozi. Chunki jirov tan olmagan davr: zulmat nurdan, g‘am shodlikdan, baxtsizlik baxtdan, tekinxo‘rlik halollikdan, fisqu fasod rostgo‘ylikdan, vayronalik obodlikdan, yomonlik yaxshilikdan ustunligi yuqorilab borayotgan vaqtlar bo‘lgan. Shuning uchun shoir amaldagi tuzum rahbarlariga xizmat qilguncha “gadoylik qilishni” afzal biladi.

Nurota dostonchilik maktabi vakillaridan biri Qurbon Yo‘ldosh o‘g‘li biladigan dostonlar o‘ttizdan ziyod bo‘lgan. U laqay do‘mbirada, gohida qo‘bizda kuylagan. Lekin dostonlardan parchalar va ayrim termalari saqlanib qolgan xolos. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Qurbon baxshi shogirdi Fayzi Najmiddinovning ta’kidlashicha, “Qo‘tirqishloq dostonchilik maktabi shoirlari mahorat bilan aytadigan dostonlari ichida “Sormonxon” dostoni alohida ta’kidlanadi:

*Saroy elda o‘tib edi sormonxon,
Sormonxonning bolasidir Ahmadxon.
Lot kopirga qo‘shin tortgan bek Ahmad.
Bek Ahmaddan aytayinmi, qadrdon.*

“Bu taraflarda “Sormonxon”ni Qurbon bobodan zo‘r aytganni hech ko‘rmadik. Shul dostonning o‘zini alohida, so‘ng, Sormonxonning o‘g‘li Ahmadjonni ham alohida doston qiluvdi. “Sormonxon” dostoni bir necha dostonga bo‘lingan. Sormonxonning uylanishi, farzandlari, farzandlarining parilarga uylanishi, ularni borib olib kelishi... Men “Ahmadjon”ni ustozdan ikki marta eshituvdim. Biz aytganlar zo‘rakilikda... Qurbonning o‘ndan, yuzidan birini aytdik. Asosan uning ohangini me‘yoriga keltirolmaymiz. Bo‘lmasa dostonda ohang asos bo‘ladi...”[7].

Uning termalari o‘ynoqiligi, ichakuzarligi, pand-nasihatga boyligi bilan kishilar e’tiborini jalb qilgan. Badhago‘ylik uning ijodida alohida ahamiyat kasb etgan. U shunday deydi:

*Og‘aynilar, meni otim Qurbon quruq,
So‘zim bo‘lur qo‘sh ho‘kizga mo‘yinturuq...*

deya davralarda odamlarni kuldirib, ovozi sozlab, so‘zning qudratiga ishora qilar edi. Baxshining “Yaxshilik va yomonlik” termasida esa shunday deydi:

*Odam fayzi yuzidandir,
Aqli, adabi so‘zidandir,
Ishi chevar qo‘lidandir,
Yaxshi gapi tilidandir.
Yaxshi yomonni ajratib,
Yo‘l tutishing o‘zingdandir*

Qurbon shoir fikrlarini yanada o‘tkir holda davom ettiradi:

*Yomonning ko‘ngli qoradir,
Qilmishidan dil qoladir...
Yaxshining dili tor bo‘lmas,
Kishiga xulqi or bo‘lmas,*

*Yaxshilar davlati shunday,
Bilganing uydagi unday.
Baddan xo‘bni ajratib,
Yo‘l tutishing o‘zingdandir.*

Yomon xulqli kishining qilmishi yaxshi kishining saxovati solishtiriladi va xulosa kishining o‘zidan ekanligi uqtiriladi. Yaxshining qalbi tor bo‘lmaydi xulqi esa ori darajasiga ko‘tariladi.

Qurbon baxshi ijodi uning o‘ynoqi va nasihatimiz misralari xalq qalbi va shuuridan chuqur joy olgan. Baxshi she’rlari xalqchilligi va hayot haqiqatini o‘zida ifoda etganligi bilan sevib o‘qiladi. Shuning uchun bugungi kunda ham baxshi nomi tez-tez tilga olinishi shundandir.

Bekmurod shoirning “Xolbeka”, “Gulshanbog’”, “Avazning arazi”, “Gulshanbog’”, “Alpomish” dostonlari xalq og‘zaki ijodiyotida mavjud dostonlarning eng yaxshi namunalaridandir. Bu dostonlar fantaziyaga boy, romantik va qahramonlik asarlarining xarakterli xususiyatlarini ifodalovchi ijodiy mahorat bilan sug‘orilgan epik asarlardan hisoblanadi.

Baxshining ijodi badiiy jihatdan an’anaviy dostonlar tili va uslubiga mos bo‘lib qahramonlar va ularning ta’rifi va tavsifi o‘z o‘rnida qo‘llanilgan.

“Gulshanbog’” dostonidan parcha ...Oftoboy ichkariga bir o‘zi kirdi. Kirdi-yu aqli-hushidan ayrilib, orqasi bilan devorga suyalib, so‘zlay olmay, bir soatgacha turib qoldi. Bir soatdan keyin aqli-hushi o‘ziga kelib, Avazxonga qarab, undan bir so‘z so‘rab turgani:

*Gadoy deb ko‘rganlar ko‘zga ilmagan,
Ishlaring aqlga to‘g‘ri kelmagan,
Qanday jon ekanin kishi bilmagan,
Jodugar yosh o‘g‘lon, qaydan keldingiz?
Sabab bilan bo‘ldingiz bu yerga mehmon,
Gadoy eding, qandayin bo‘lding sulton?
Gadoy so‘ngra bir faslda yosh o‘g‘lon
Jodugar yosh o‘g‘lon, qaydan keldingiz?*

Oftoboyning Avazxonni ko‘rgandagi holat, ifodasini qarang avvaliga gadoy deb odamlar nazar qilmadi chunki qilgan ishlaring yomonligi uchun aqlga sig‘mas ekanligidan qanaqa odam ekanliging kishini hayron qoldirdi. Ey yosh o‘g‘lon jodugar ekansan, qayerdan keldingiz? Bir sabab bilan bu yerga mehmon bo‘lding lekin gadoy edingki, qanday qilib sen sulton bo‘lding? Gadoy qanday qilib juda qisqa muddatda bunday yosh o‘g‘lon bo‘lding? Ey yosh o‘g‘lon jodugar ekansan, qayerdan keldingiz?

Yoki, shunda Avazxonni Oftoboyga qilgan javobi:

*Bizning elda bunday rasm qoida yo‘q,
Imoratlari katta, bunday chayla yo‘q.
Otim bekor so‘rab mening netasiz,
Kim bo‘lganman mendan sizga foyda yo‘q.
So‘rasang, men aytay asli zotimni,
Dushmanlarga qildim siyosatimni,
O‘sgan joyim mening Chambil belinda,
Avazxon der mening, Oftob, otimni.*

deya bizda bunday qoida yo‘q, imoratlari katta ekanligini, otini so‘ramasligini lekin kim bo‘lgani unga qiziq emasligini aytib, mayli so‘radingiz kimligimni aytay sizga men dushmanlarga siyosat qilgan, Chambil yurtidan Avazman deya tanishtiradi. Dostonda Avaz bilan Oftoboyning uchrashuvi holatining ifodalanishi o‘qimishlilik bilan, misralardagi ifoda yo‘sining o‘ziga xosligi bilan ahamiyatlidir.

Baxshining ilhom manbai sifatida do‘mbira alohida qadrlanadi. Do‘mbiraga murojaat qilib, shunday deydi: Sen tufayli do‘mbiram yaxshi ulfatlarni ko‘nglini oldim, dushmanlarni qalbiga o‘tlarni yoqib, bag‘rini teshding. Sen shundaysanki, qo‘lga olsam tiniq suvday oqarsan, bulbul kabi so‘zing ya‘ni ovozing xalqqa yoqadi shuning uchun do‘stlaringni ko‘nglini yaxshi toparsan, shuning uchun ham bulbul kabi sayroqi do‘mbiramsan. Seni maqtab haddan oshirdim lekin dushmanga seni siringni aytmay yashirdim, seni tinglovchi eshituvchi yigitlarni yuragidagi dardni toshirdim, eshitganni botir qilgan do‘mbiram deya baxshi termasini mazmuni va unda ifodalanayotgan g‘oyani mahorat bilan ko‘rsatib bergan.

Umuman olganda, Bekmurod Jirav ijodi eng avvalo xalqchilligi bilan, inson ma‘naviyati yuksalishi uchun xizmat qiladigan pandnoma mazmunidagi asarlari bilan kitobxonlar tomanidan sevib o‘qiladi. Baxshi ijodini o‘rganar ekansiz yangi-yangi qirralarini kashf qilib

boraverasiz. Nurotalik baxshilar va ularning ijodiy merosi juda kam hajmli bo‘lsa-da, terma va dostonlari orqali tasavvur va xulosalar qilish imkonini beradi. Baxshilar merosini o‘rganish orqali Nurota dostonchiligi xususidagi manbalar ko‘lami kengligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa ularni yana izchil o‘rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. -Т., 2004. –Б. 95.
2. Қодиров Р. Халқ куйчилари // Ленин йўли (ҳозирги “Зарафшон”). 1979 йил, 9 январь, –Б. 4.
3. Қодиров Р. Халқ куйчилари // Ленин йўли (ҳозирги “Зарафшон”). 1979 йил, 9 январь, –Б. 4.
4. Қодиров Р. Чўл бахшилари // Гулистон. –1982. – № 2. –Б. 20.
5. Қодиров Р. Чўл бахшилари // Гулистон. –1982. – № 2. –Б. 20.
6. Қодиров Р. Халқ куйчилари (Чакут жирова) // Ленин йўли. 1979 йил, 10 январь. –Б. 4.
7. Қодиров Р. Нуроталик Қурбон шоир // Гулистон. – 1983. –№ 10. –Б. 30.